

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
QONUNI

**FARZANDLIKKA OLISH TARTIBINING HUQUQIY ASOSLARI TAKOMILLASHTIRILISHI
MUNOSABATI BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA
O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RSIDA**

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 16-
avgustda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 30-sentabrda
ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan 607-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-songa ilova; 2003-yil, № 1, 8-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 4, 157-modda; 2008-yil, № 4, 189-modda; 2009-yil, № 9, 328-modda; 2010-yil, № 9, 334, 335-moddalar; 2011-yil, № 9, 252-modda, № 12/2, 363-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda; 2016-yil, № 9, 276-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4-moddalar, № 4, 224-modda; 2019-yil, № 8, 469-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 1, 1-modda, № 3, 199-modda, № 10, 593-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) **152-moddasiga** quyidagi o'zgartishlar va qo'shimcha kiritilsin:

birinchi qismning:

oltinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“hayotga, sog'liqqa qarshi jinoyatlar, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan jinoyatlar, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi, shaxsning ozodligiga, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi (bundan tuhmat, haqorat qilish mustasno), fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi (bundan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish mustasno), tinchlikka va insoniyatning xavfsizligiga qarshi, O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar, o'zganing mol-mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar, jinoiy yo'l bilan topilgan mol-mulkni olish yoki o'tkazish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish yoxud nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish, boshqaruv tartibiga, shuningdek odil sudlovga qarshi jinoyatlar, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (bundan uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish, uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibini buzish, tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish, sanitariyaga oid qonunchilikni yoki epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish, tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish, yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish mustasno), giyohvandlik vositalarining yoki psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasidan iborat jinoyatlar, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar va harbiy mansabdorlik jinoyatlari sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar”;

quyidagi mazmundagi yettinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“ushbu modda birinchi qismining oltinchi xatboshisida ko'rsatilgan jinoyatlar jumlasiga kirmaydigan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar;

ushbu modda birinchi qismining oltinchi va yettinchi xatboshilarida ko'rsatilgan jinoyatlarni sodir etganlik uchun o'ziga nisbatan jinoyat ishi ayblilik to'g'risidagi masala hal qilinmay turib tugatilganlar;

farzandlikka olishga monelik qiladigan kasalliklarga chalinganlar. Mazkur kasalliklarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi”;